



ARTICLE INFO

Received: 14th March 2025
Accepted: 18th March 2025
Online: 19th March 2025

KEYWORDS

"Principle of separation of powers," "Principle of ensuring citizens' rights and freedoms," "Principle of openness and transparency," "Principle of responsibility and accountability," "Principle of subordination."

BASIC PRINCIPLES OF GOVERNMENT ACTIVITY AND PROSPECTS FOR ITS IMPROVEMENT

Saparbay Dauletbayevich Allambergenov

Associate Professor at the Institute for Advanced Training of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15049556>

ABSTRACT

This article provides a legal analysis of the basic principles governing the activities of the government of the Republic of Karakalpakstan, as defined in the Constitution and legislation of the Republic of Karakalpakstan. It develops proposals for further improvement of these basic principles and puts forward the idea of establishing them in the Basic Law of the Republic of Karakalpakstan and relevant legislative acts.

HUKUMAT FAOLIYATINING ASOSIY PRINSIPLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Saparbay Dauletbayevich Allambergenov

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15049556>

ARTICLE INFO

Received: 14th March 2025
Accepted: 18th March 2025
Online: 19th March 2025

KEYWORDS

"Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi", "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash prinsipi", "Ochiqlik va oshkoralik prinsipi", "Mas'ullik va hisobdorlik prinsipi", "Buysunish prinsipi".

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida belgilangan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati faoliyatining asosiy prinsiplari huquqiy tahlil qilinib, ushbu asosiy prinsiplarni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishgan hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining Asosiy qonuni va tegishli qonun hujjatlarida belgilash g'oyasi ilgari surilgan.

Ma'lumki, suveren davlatlar singari, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat boshqaruvida ham hokimiyatning – qonun chiqaruvchi (Joqarg'i Kenes), ijro etuvchi (Ministrler Kenesi) va



mustaqil sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, Jo'qorg'i Kenges – Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish va unga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish orqali takomillashtirish, shuningdek, davlatning ijtimoiy hayotini milliy qonunchilik asosida konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish funksiyasini amalga oshirsa, uning ijrosini tashkil etish va boshqarish davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi organi – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi – hukumati zimmasidadir.

Hukumat o'z vakolatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va tegishli qonun hujjatlari asosida, shuningdek, faoliyatining asosiy prinsiplari doirasida amalga oshiradi. Qonunda [1] hukumat *kollegiallik, demokratiya va qonuniylik* hamda *Qoraqalpog'iston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish* prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilangan. Hukumat Raisiga hukumat faoliyatini tashkil etish va boshqarishda *kollegiallikni* ta'minlash vazifasi ham bevosita yuklatilgan [2].

Hukumat faoliyatining asosiy prinsiplarni tahlil qilishimizdan oldin, ushbu sohani ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida o'rgangan olimlarning fikrlariga qisqacha to'xtalishni lozim topdik. Jumladan, *Yu.M.Kozlov* ijro hokimiyat organlari faoliyatining asosiy prinsiplari qatoriga, "ijro hokimiyatning davlat tuzilishiga mos ravishda tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi prinsipi, qonuniylik prinsipi, davlat boshqaruv faoliyati obyektlarining xususiyatlarini hisobga olish prinsipi, kollegiallik va yakkaboshchilikning birgalikda mavjud bo'lishi prinsipi, ijro hokimiyat organlarining javobgarligi prinsipi va oshkoralik prinsiplarini" qayd etib o'tgan [3. S.40–41]. *B.N.Gabrachidze* esa, ijro hokimiyat organlari tuzilishi va faoliyat ko'rsatishida asosiy prinsiplar sifatida "davlat tuzilishiga mos kelishi prinsipi, ijro hokimiyat organini huquqiy tartibga solish prinsipi, ushbu organlarning tizimliliigi prinsipi, funksiyalarni markazlashtirish va nomarkazlashtirish hamda ushbu muammo va qarorlarni tizimning o'zida hal qilish prinsipi, funktsiya va vakolatlarining taqsimlanganligi prinsipi, professionallik va kompetentlik prinsipi, qonuniylik prinsipi, oshkoralik prinsipi, funktsiya va vakolatlarni ketma-ketlikda amalga oshirishi hamda ijroiya hokimiyat organlari bir qismi vakolatlarini uning boshqa bir qismi (kichik tizimi)ga berish prinsipi, ijro hokimiyat organlarining qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilishi hamda kelishilgan holda faoliyat ko'rsatishi prinsipi, fuqarolarning ijro hokimiyat organlarini shakllantirishda ishtirok etishi prinsipi, ijro hokimiyat organlarini tashkil qilish va ularning faoliyat ko'rsatishi jarayonida nazorat prinsipini" qayd etgan [4. S.71].

Fikrimizcha, olimlarning ushbu qarashlari barcha ijro hokimiyat organlari faoliyatining umumiy va o'ziga xos prinsiplarini o'z ichiga qamrab olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Fikrimizni davom etib, hukumat faoliyatining asosiy prinsiplariga qisqacha to'xtalamiz.

Kollegiallik prinsipi. "Kollegiallik" so'zining lug'aviy ma'nosi "birgalashib", "kengashib ish ko'rish, faoliyat yuritish" ma'nolarini anglatrsa, ayrim manbalarda "...rahbarlik vakolatli shaxslar guruhi tomonidan amalga oshirilishi, mazkur shaxslarning har biri muayyan faoliyat sohasi uchun shaxsiy javobgar bo'lishi, shuningdek ... rahbar, odatda, kollegiya raisi hisoblanishiga" [5. B.247] doir qoidalar belgilangan.

Kollegiallik prinsipi hukumatning davlat hokimiyati tizimida kollegial organ sifatida alohida belgisini ifodalaydi.

Hukumatning kollegial organ sifatida faoliyat shaklini shartli ravishda:



birinchidan, hukumatning reglament asosida yilning har choragida kamida bir marta hukumat Raisi boshchiligida (agarda u bo'lmasa uning topshirig'iga binoan uning o'rinbosarlaridan biri boshchiligida) o'tkaziladigan majlislari [6];

ikkinchidan, hukumat Raisi va uning o'rinbosarlari tarkibida (yoxud hukumat Raisining qarori bilan hukumat Rayosati tarkibiga hukumatning boshqa a'zolari) o'tkaziladigan Rayosat majlislari;

uchinchidan, hukumat tarkibida qonun hujjatlarning ijrosini ta'minlash, vakolatiga tegishli sohalarni rivojlantirish va boshqa yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishda tashkil etiladigan doimiy va muvaqqat komissiyalar, shuningdek, boshqa ishchi organlar ham o'z faoliyatlarini kollegiallik prinsipi asosida amalga oshirishini kiritishimiz mumkin.

Fikrimizcha, kollegiallik prinsipining asosiy talablaridan biri ijro hokimiyat organlarining qonun osti hujjatlari avvalo, tegishli sohalar bo'yicha mas'ul va javobgar bo'lgan davlat xizmatchilarining keng ishtirokida hamda ularning jamiyat hayotidagi mavjud muammolari bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalari asosida ishlab chiqilishi, shuningdek ko'pchilik tomonidan yoqlab ovoz berishi orqali qabul qilinishini talab etadi. Bu esa ijro organlar tizimidagi davlat xizmatchilaridan jonkuyarlik, tashabbuskorlik va xizmat vazifalarini mas'uliyat bilan ijro etishlarini talab etadi.

Demokratiya va qonuniylik prinsiplari. "Demokratiya" so'zining lug'aviy ma'nosi (yun. demokratia – xalq hokimiyati, demos – xalq va kratos – hokimiyat so'zlaridan) – konstitutsiyaviy tuzumning xalq hokimiyatchiligi va siyosiy plyuralizm, fuqarolar erkinligi va tengligi, inson huquqlarining daxlsizligi kabi asoslarini e'tirof etishga asoslangan davlatning siyosiy rejimi. Hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlariga bo'linishi hamda ularning o'zaro aloqasi, xalq vakilligi rivojlangan tizimiga ega respublika boshqaruvi demokratiyani amalga oshirish shakli hisoblanadi [7. B.130].

Hukumat faoliyatida demokratiya prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlar asosida hukumatning tashkil etilishi va o'z vakolatlarini amalga oshirishini qayd etishimiz mumkin. Shuningdek, Konstitutsiyaning 7-moddasida "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshirilishi, Konstitutsiyada nazarda tutilmagan davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib quyish yoki tugatish, shuningdek, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanishi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'lishiga" doir qoidalar belgilangan.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaning 13-moddasida "Qoraqalpog'iston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, demokratik huquqlari va erkinliklari Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishiga" doir qoidalarni e'tirof etishimiz mumkin.

Qonuniylik prinsipi esa, Konstitutsiyaning 15-16-moddalarida o'z ifodasini topgan bo'lib, unga ko'ra, "Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning Konstitutsiya va qonunlari ustunligi so'zsiz tan olinishi, davlat, uning organlari, mansabdor



shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rish, ushbu Konstitutsiyaning birorta qoidasi Qoraqalpog'iston Respublikasi huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazadigan tarzda talqin etilishi mumkin emasligi hamda birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emasligiga" doir qoidalarni qayd etishimiz mumkin.

Demokratik davlatda qonunlarning yuksak va mustahkam nufuzsiz biror ma'no kasb etmaydi. Ushbu haqiqatni O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov mamlakatdagi yangilanish va taraqqiyot siyosatining negiziga kiritgan edi. Chunonchi, "Qonunning ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iy hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga buysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi" [8. B.174]. Haqiqatan ham, huquqiy demokratik davlatda qonun ustuvorligi va barcha uchun majburiyligi ta'minlanmas ekan erkin jamiyatni barpo etib bo'lmaydi, shuningdek, davlat hokimiyati, shu jumladan, hukumat va barcha ijro organlar faoliyatiga salbiy ta'sir etishi va ularning faoliyatini izdan chiqarishi muqarrar.

Ma'lumki, har bir respublikaning asosiy vazifalaridan biri jamiyat hayotida shaxslarning qonunchilik hujjatlariga og'ishmay rioya qilishini ta'minlashdan iborat. Nazarimizda, shaxslarning qonun hujjatlariga qat'iy rioya etishini ta'minlashda, avvalo huquq-tartibot sohasini mustahkamlash bilan birga, fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish orqali ta'minlanadi.

Umumiy aytganda, har bir respublika jamiyat hayotida qonuniylikni mustahkamlash borasida:

birinchidan, har bir xalq milliy qonunchilik tizimini yaratishi va mustahkamlashi, shuningdek, jamiyat hayotidagi mavjud ehtiyoj va talablar asosida ushbu qonunchilik tizimini takomillashtirib borish;

ikkinchidan, Konstitutsiya va qonun hujjatlarning ijrosini samarali ta'minlash majburiyati yuklatilgan ijro hokimiyat organlari faoliyati ustidan davlatning ta'sirchan nazoratini o'rnatish;

uchinchidan, davlatning huquq-tartibot sohasini mustahkamlash bilan bir maromda xalqning siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish bo'yicha asosiy vazifalarni belgilash va bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali ta'minlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yashaydigan barcha millatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsipi. Respublika Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqini millatidan qat'i nazar, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolari [9] tashkil etadi [10], deb belgilangan.

Demak, har bir millat va elat vakillari jamiyatimiz a'zosi bo'lganligi uchun ular teng huquq sohibi sifatida davlat hokimiyati, shu jumladan, hukumat tomonidan bir xil asosda himoya qilinadi.

Yuqorida tahlil qilingan hukumat faoliyatining asosiy prinsiplari fikrimizcha, bugungi kunda hukumat faoliyatini tartibga solishda yetarli emas, deb hisoblaymiz. Xususan, hukumat faoliyatida ushbu prinsiplardan tashqari ko'lam keng bo'lgan va mazmunan boyligi bilan



ajralib turadigan boshqa prinsiplar ham mavjudligi va ushbu prinsiplar asosida ham hukumat faoliyat yuritayotganligini qayd etishimiz mumkin. Chunonchi, hukumat faoliyatida “davlat hokimiyatining bo‘linishi prinsipi”, “fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash prinsipi”, “ochiqlik va oshkoralik prinsipi”, “mas‘ullik va hisobdorlik prinsipi” va “buysinish prinsipi”larini keltirishimiz mumkin.

Ushbu prinsiplarni nazariy-huquqiy jihatdan qisqacha asoslashga harakat qilamiz.

Davlat hokimiyatining bo‘linishi prinsipi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipi konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan belgilangan bo‘lib [11], ushbu organlar o‘z faoliyatini xalq manfaatlarini yo‘lida, uni ko‘zlab hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida amalga oshiradi [12]. Ushbu qoidadan ko‘rinib turibdiki, hukumat o‘z faoliyatini boshqa davlat hokimiyat organlaridan mustaqil holda (hukumatning parlament oldida hisobdorligi bundan mustasno) hamda Konstitutsiya va qonunlarga asosan amalga oshirishini qayd etishimiz mumkin. Shu sababli, fikrimizcha, hukumat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy prinsiplar tizimiga “davlat hokimiyatining bo‘linishi prinsipi”ni kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu bevosita, Qoraqalpog‘iston Respublikasida davlat hokimiyati bo‘linishi prinsipining yanada mustahkamlanishi bilan birga, barcha ijro organlar o‘z faoliyatini amalga oshirishda boshqa davlat hokimiyati organlarining tazyiqidan xoli bo‘lishiga, shuningdek, ijro organlar faoliyatida hamjihatlikdagi hamkorliklarning yanada yuksalishiga zamin yaratadi.

Bu borada ayrim xorijiy davlatlar (Adigeya, Oltoy, Komi)ning qonun hujjatlari tahlil qilinganda hukumat faoliyatining asosiy prinsiplari tizimida “hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi” belgilangan [13].

Taklif etilayotgan asosiy prinsip o‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlariga ham joriy etishni talab etiladi. Darhaqiqat, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov 1997-yil 17-iyuldagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining navbatdan tashqari sessiyasida qayd etganidek: “Biz tanlagan yo‘l – huquqiy demokratik davlat qurish yo‘li. Biz tanlagan yo‘l – fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘li. Shuning uchun hokimiyatning tarmoqlanishi masalasida eng demokratik tamoyillarni amalda joriy qilishimiz darkor” [14. B. 281-282]. “Biz oldimizga qo‘ygan maqsadni soddagina ifodalamoqchi bo‘lsak – har qanday hokimiyat, u qonunchilik yoki ijro va sud hokimiyati bo‘ladimi – bularning barchasi quyidagi talablarga javob berishi shart. Ya‘ni, har qaysisi o‘z vazifasini anglashi, o‘z mas‘uliyatini his qilishi, o‘z yukini ko‘tarishi va ta‘bir joiz bo‘lsa, o‘z aravasini mustaqil ravishda tortishi darkor” [15. B. 37]. “Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa hokimiyat tizimlari bo‘linishining konstitutsion prinsipiga amal qilinishini ta‘minlashdir” [16]. “Hokimiyatlar bo‘linishi tamoyili mamlakatning konkret tarixiy shart-sharoitlarini hisobga olgan holda joriy etilsagina, hokimiyat organlarining muvozanati va tengligini ta‘minlash mumkin” [17. B. 21].

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash prinsipi.

Ma‘lumki, bugungi kunda shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoyalash nafaqat bir davlat oldida turgan asosiy vazifa, balki butun dunyodagi katta yoki kichik respublikalar oldida turgan global muammolardan biri hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-19-moddalarida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi,



e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yilishi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquqlari va erkinliklari daxlsizligi, ulardan sud qarorisiz mahrum etilishiga yoki ularning cheklab qo'yilishiga hech kim haqli emasligiga doir qoidalar belgilangan. Shu bilan birga, Konstitutsiyada davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi [18] va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligiga doir normalar mustahkamlangan [19]. «Vazirlar Kengashi to'g'risida»gi qonunning 10-moddasida esa, hukumat respublika fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda muhofaza qilishi, xususan, ularning iqtisodiy va mehnat qilish huquqlarini ta'minlashiga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqishiga doir qoidalar belgilangan [20]. Ushbu qoida asosida hukumat respublika fuqarolarining huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda mas'ul va javobgar bo'lgan davlat hokimiyat organi, deb e'tirof etsak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sababli, hukumat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy prinsiplar qatorida *fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash* prinsipini ham belgilash taklifi ilgari surilmoqda.

Ushbu taklif bevosita hukumatning respublika fuqarolari oldidagi mas'ulligi va javobgarligining yanada oshirilishiga turtki bo'ladi.

Ochiqlik va oshkoralik prinsipi. "Jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular – xalqning qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligi, hukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir. Ana shu uch sohada haqiqiy siljishlar bo'lmas ekan, demokratiya haqidagi hamda gap-so'zlar yo xalqqa xushomad qilish yoki oddiy siyosiy o'yin bo'lib qolaveradi" [21. B. 156-157].

Hukumat faoliyatida demokratiyaga qay darajada amal qilayotganligini ko'rsatib beruvchi asosiy omillardan biri bu, uning xalq oldidagi ochiqligi va oshkoraligidir. Bugungi kunda hukumatning hukumat portali [22] faoliyat ko'rsatmoqda, bu ham hukumat faoliyatida birgina oshkoralik prinsipining ta'minlanganligi xolos.

Hukumat ijro organlar faoliyatiga umumiy boshchilikni amalga oshirar ekan, bu, o'z navbatida, uning xalqqa yaqin bo'lishini, ularning dardu tashvishi bilan faoliyat yuritishini, bir so'z bilan aytganda, xalq va hukumat o'rtasida mustahkam ko'prik vazifasini o'tovchi muntazam aloqani tashkil etishni talab etadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kilaganidek: "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak. ...Shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalq bilan muloqot va inson manfaatlari tushunchalari o'zaro shunchalik bog'lanib ketganki, ularni bir-biridan aslo ajratib bo'lmaydi. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda, barcha qonun hujjatlarida xalq bilan muloqot tizimi haqidagi normalarni aniq belgilab qo'yish lozim, deb hisoblayman" [23]. Ushbu konseptual g'oya asosida hukumat faoliyatida *ochiqlik va oshkoralik* prinsipining huquqiy jihatdan belgilanishi taklif etiladi. Ushbu prinsipning hukumat faoliyatida belgilanishi avvalo, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolari tomonidan hukumat va boshqa ijro hokimiyat organlari faoliyatini xolisona baholashga hamda jamoatchilik va ijro organlar o'rtasida doimiy va sifatli aloqalar tashkil etilishiga zamin yaratadi.



Hukumat faoliyatida ushbu prinsipni belgilashdan asosiy ko'zlangan maqsad – fuqarolarning hukumat va boshqa ijro organlar faoliyatidan muntazam xabardor bo'lishi, ularning faoliyatiga doir axborotlarni erkin va to'siqlarsiz olishi, foydalanishi, tadqiq qilishi va boshqa huquqlarini ro'yobga chiqarishdan iborat.

Ma'lumki, dastlab O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi, jamiyatning axborot olish huquqini ta'minlanishi, aholining, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarining davlat organlari faoliyati, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlardan xabardorligi samaradorligini yanada oshirish maqsadida "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish tashabbusi olg'a surilgan edi [24. B. 85]. Ushbu taklif asosida Oliy Majlis palatalari tomonidan qonun loyihasi qabul qilinib, 2014-yil 6-mayda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti tomonidan tasdiqlandi.

Hukumat faoliyatida asosiy prinsip sifatida ochiqlik va oshkoralik prinsipining belgilanishi:

birinchidan, hukumat va boshqa ijro organlar tomonidan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida qabul qilayotgan qonun osti hujjatlarining sifati yanada oshirilishi bilan birga, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarda samarali natijalarning qo'lga kiritilishiga erishiladi;

ikkinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan hukumat va boshqa ijro organlar faoliyatiga doir tegishli axborotlarni to'siqlarsiz olish huquqi yanada kafolatlanadi;

uchinchidan, hukumat va boshqa ijro organlar to'g'risidagi axborotlarni tarqatish tartibi yanada tartibga solinadi;

to'rtinchidan, ijro organlarning hukumat oldidagi mas'ulligi va javobgarliklari yanada oshiriladi va hokazo.

Mas'ullik va hisobdorlik prinsipi. Konstitutsiya va qonun hujjatlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqi nomidan faqat u saylagan Jo'qorg'i Kengesi ish olib borishi, jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi yoki alohida shaxs Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqi nomidan ish olib borishga haqli emasligi, shuningdek, hukumat Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tuzilishi, uning oldida mas'ul va hisobdorligi, yangi saylangan Jo'qorg'i Kengesi oldida hukumat o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishi, shuningdek, hukumat tarkibini shakllantirishda Jo'qorg'i Kengesi muhim o'rin egallashiga doir qoidalar belgilangan [25]. Ushbu qoidalardan ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat apparati tizimida Jo'qorg'i Kengesi faoliyati asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli, hukumat faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarda mas'ullik va hisobdorlik prinsipini belgilash taklifi ilgari surilmoqda.

Taklif etilayotgan ushbu prinsip hukumatning quyidagi faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz:

1) barcha ijro organlar tomonidan yildan-yilga xalqning ehtiyoji va talablari ortib borishini inobatga olib, ijtimoiy qatlamdagi mavjud muammolarni yanada chuqur o'rganish va bartaraf etish bo'yicha istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga turtki bo'ladi. Shu asosda xalq bilan ijro organlar o'rtasidagi muloqotning uzluksiz tizimi yaratiladi;

2) Jo'qorg'i Kengesi va hukumat o'rtasidagi munosabatlarda yanada o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Xususan, "bu orqali amaldagi qonunchilik talablarini bevosita va



to'g'ridan to'g'ri ijro etish, ijro hokimiyat ta'siri ostida bo'lgan obyektlarning normal va samarali ishini ta'minlash, fuqarolar huquqlari va erkinliklarining amalga oshirilishini, davlatning jamiyat oldidagi majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash maqsadiga erishiladi" [26. B. 48]. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini yanada takomillashtirish, yangi tahrirda qonun hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda hukumatning huquq ijodkorlik va qonunchilik tashabbusi faoliyati yanada oshirilishi bilan birga, respublika ijro organlar faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazorati o'rnatiladi;

3) ijro organlarning hukumat oldidagi mas'ulligi va javobgarligi oshirilishi bilan birga, qonun hujjatlarda belgilangan hukumat vakolatlarining samarali ijro etish faoliyati yanada takomillashtiriladi va hokazo.

Buysunish prinsipi. Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro organlarni quyidagi turlarga shartli ravishda bo'lishimiz mumkin:

1) ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi (Vazirlar Kengashi - hukumat);

2) markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlari (vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa idoralar);

3) mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (shahar-tuman hokimliklari).

Ushbu organlar quyidan yuqoriga buysunish tamoyili asosida faoliyat yuritadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, hukumat o'z tarkibiga hukumat Raisi, uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasining vazirlari, davlat qo'mita raislari hamda davlat va xo'jalik boshqaruv organlari rahbarlarini qamrab olgan [27].

Ijro organlar tizimida hukumat Raisining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 88-moddasida hukumat Raisi hukumat va mahalliy ijro organlar tarkibini shakllantirishda Jo'qorg'i Kengesga nomzodlar kiritishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida ijro organlarni tuzish yoki tugatishda Jo'qorg'i Kengesga takliflar taqdim etishiga doir qoidalar belgilangan.

Qonunga [28] muvofiq, hukumat mahalliy ijro organlarning tarkibi va tuzilishini belgilaydi, uning faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi. Hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlaydi. Markaziy va mahalliy ijro organlari o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etadi, bunda paydo bo'lgan bahsli masalalarni hal etadi. Markaziy ijro organlar faoliyatini belgilovchi Nizom loyihalarini tasdiqlaydi. Respublika budjeti asosida boshqaruv organlarining markaziy apparati ishchi xizmatchilari sonini va ularning mablag'larini belgilaydi, shuningdek, vazirlar va davlat qo'mita raislarining o'rinbosarlarini, boshqaruv organlari rahbarlari va ularning o'rinbosarlarini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi. Shu bilan birga, amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan boshqaruv organlari va mahalliy ijro organlarning normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilishga haqli hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan qoidalarga tayanib, hukumat faoliyatida asosiy prinsip sifatida *buysunish* prinsipini belgilash lozim, deb hisoblaymiz.

Ushbu asosiy prinsipning hukumat faoliyatida belgilanishi Qoraqalpog'iston Respublikasining ijro hokimiyat organlari faoliyatida:

birinchidan, Konstitutsiya va qonun hujjatlarning samarali ijrosini ta'minlashda, shuningdek, respublikaning tegishli sohalarini rivojlantirishda ijro organlarning hamjihatlikdagi hamkorligi yanada oshiriladi;



ikkinchidan, respublika hayotini kompleks tahlil qilishda ijro organlarning javobgarligi yanada oshiriladi. Bu esa yanada sifatli va natijali respublika budjeti loyihalarining, shuningdek, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi loyihasi ishlab chiqilishi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishiga erishiladi;

uchinchidan, ijro organlar tizimidagi davlat xizmatchilarining avvalo xalq, Jo'qorg'i Kenges va hukumat oldida hisobdorligi yanada ta'minlanadi va hokazo.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to'g'risida»gi qonuni. – Nukus, 2016. 2-m. // URL – www.sovminrk.gov.uz
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Nukus, 2014. 88-m. // URL – <http://parliamentrk.gov.uz/uz/dokumenti/konstitucija-respubliki-karakalpakstan/>
3. Kozlov Yu.M. Administrativnoye pravo: Uchebnik. – M.: Yurist', 1999. – S. 40–41 // URL – <http://www.alleng.ru/d/jur/jur727.htm>
4. Gabrichidze B.N., Chernyavskiy A.G., Kim-Kimen A.N. Administrativnoye pravo. – M.: TK Velki, Izd-vo Prospekt, 2004. St. 71.
5. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / R.A. Muhitdinov va boshq.; mas'ul muharrir N. Toychiyev. – T.: Adolat, 2009. – B. 247.
6. Qoraqalpog'iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to'g'risida»gi qonuni. – Nukus, 2016. – 14-m.
7. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / R.A. Muhitdinov va boshq.; mas'ul muharrir N. Toychiyev. – Toshkent, Adolat, 2009. – B. 130.
8. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. – Toshkent, 1996. – B. 174.
9. Izoh: O'zbekiston Respublikasida yagona fuqarolikning o'rnatilishiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.
10. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Nukus, 2014. 8, 18-m. // URL – <http://parliamentrk.gov.uz/uz/dokumenti/konstitucija-respubliki-karakalpakstan/>
11. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Nukus, 2014. 11-m. // URL – <http://parliamentrk.gov.uz/uz/dokumenti/konstitucija-respubliki-karakalpakstan/>
12. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Nukus, 2014. 7-m. // URL – <http://parliamentrk.gov.uz/uz/dokumenti/konstitucija-respubliki-karakalpakstan/>
13. Adigeya Respublikasining «Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuni. – Maykop., 1996. 4-m. // URL – <http://docs.cntd.ru/document/804932186>; Oltoy Respublikasining «Hukumati to'g'risida»gi qonuni. – Gorno-Altaysk, 1998. 3-m. // URL – <http://docs.cntd.ru/document/412309722>; Komi Respublikasining «Komi Respublikasi Rahbari, Komi Respublikasi Hukumati va Komi Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi to'g'risida»gi qonuni. – Siktivkar, 2013. 2-m. // URL – <https://rg.ru/2014/01/14/komi-zakon140-reg-dok.html>
14. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lidir. T. 6. – Toshkent, 1998. – B. 281–282.



15. Karimov I.A. Biznng bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent, 2005. – B. 37.
16. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi. 2000. № 11.
17. Vohidov Z.T. O‘zbekiston Respublikasida hokimiyat bo‘linishi prinsipining amaliy ifodasi: Yurid. fan. nomz. ...dis. avtoref. – Toshkent, 2000. – B. 21.
18. Izoh: O‘zbekiston Respublikasida yagona fuqarolikning o‘rnatilishiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.
19. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Nukus, 2014. 2, 19-m. // URL – <http://parliamentrk.gov.uz/uz/dokumenti/konstitucija-respubliki-karakalpakstan/>
20. URL – www.sovminrk.gov.uz
21. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. – Toshkent, 1998. – B. 156–157.
22. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati portali // URL – www.sovminrk.gov.uz
23. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining yigirma to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Toshkent, 2016.
24. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi. // Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezoni. – Toshkent, 2011. – B. 85.
25. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Nukus, 2014. 10, 87, 89-m. // URL – <http://parliamentrk.gov.uz/uz/dokumenti/konstitucija-respubliki-karakalpakstan/>; Qoraqalpog‘iston Respublikasi «Jo‘qorg‘i Kengesi to‘g‘risida»gi qonuni. – Nukus, 2016. 4-modda 15-band; Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi qonuni. – Nukus, 2016. 1, 6, 7, 10-m. // URL – www.sovminrk.gov.uz
26. E.Xojiyev., T.Xojiyev. Ma‘muriy huquq: Bakalavriyatning 5380100 – Yurisprudensiya yo‘nalishi talablari uchun darslik. / Mas‘ul muharrir: yu.f.d., prof. M.X.Rustambayev. – Toshkent, 2006. – B. 48.
27. Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi qonuni. 2016. 5-m. // URL – www.sovminrk.gov.uz
28. Qoraqalpog‘iston Respublikasining «Vazirlar Kengashi to‘g‘risida»gi qonuni. 2016. 8, 11, 12-m. // URL – www.sovminrk.gov.uz